



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

"TEMURBEKLAR TO'GARAGI" HUJJATLARI

O'RTA GURUH

NAMUNA





BUYUK SARKARDA


Amir Temur - bizning sha'n-shavkatimiz,
g'urur iftixorimizdir. Amir Temur - xalqimiz
dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz
ramzidir.

I.A.Karimov.

Biz kim, mulki taron, Amiri Turkistonmiz.
Biz kim, millatlarning eng qadimi va
eng ulug'i - turkning bosh bo'ginimiz.

Amir Temur.

Amir Temur
bin Tarag'ay
(1336-1405)



Temuriylar tarixi davlat muzeyi.

Amir Temur timsolida biz Vatanimizni yomon kuzlardan,
balo –kazolardan asrashga kodir, kerak bulsa ,
bu yulda jonini xam fido kilishga tayyor bo'lgan a'zamat
o'g'lonlarimiz – bugungi Temurbeklarning ma'naviy
qiyofasini kuramiz.

Sh.M.Mirziyoev

KIRISH

Ta'limliy farzand – komil inson bo'lgay,
Tarbiyaliy farzand – xazrati insondur

Abdulla Ahmad

Yosh avlodni ona-Vatanga, ota-bobolar merosi va pand- nasihatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida milliy g'urur, fidoiyluk tuyg'usini shakllantirish, ular ongiga milliy mafkurasini singdirish kichik maktabgacha yoshdan boshlanadi. Kichiklarga ona-Vatanimiz haqida so'zlab, uni sevishtirish, ardoqlash, unga munosib farzand bo'lishlik haqida suhbatlashib, ular qalbida Vatan tuyg'usini shakllantirib boradilar.

Muxtaram prezidentimizning jonkuyarligi, g'amxo'rliqi bilan yosh avlodni har tomonlama bilimli va ma'nan etuk qilib tarbiyalashda yaratilayotgan sharoitlar natijasida ushbu yilda maktabgacha ta'limni yanada takomillashtirish bo'yicha 2021-2026-yillarga mo'ljallangan dasturida keng qo'lamli vazifalar o'z ifodasini topgan. Zero, jamiyat taraqqiyotida eng avvalo uning kelajagi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom va ilimli, o'z yurtini sevadigan, ota-bobolarining ma'naviy va axloqiy yuksak qadriyatlarini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tabirlari bilan aytganda - *Bolalarning qiziqish va intilishini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim-tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish orqali ularni ona Vatanga muhabbat ruhida kamol toptirish masalasi davr talabidan ortda qolayotgani sababli maktabgacha ta'limning boshqaruv tizimi qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.*

Farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyaga bog'liq. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi. Shunday ekan tarbiyalanuvchilarning yukori darajaga etishishida pedagog xodimlarning xizmati bekiyosdir. Shu bilan birga, yildan – yilga ota – onalar va tarbiyalanuvchilarning bilim olishga bulgan munosabatlari ijobiy tomonga uzgarib bormokda.

Tarbiyalanuvchilarning har tomonlama jismoniy, ma'naviy va akl zakovatli bolalar bulib kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning tarbiyasida pedagogika, psixologiyaning zamonaviy usullarini kullash, erkin fikrlash kunikmalarini shakllantirish, eng yaxshi an'analarimiz va urf –odatlarimiz asosida bolalarga vatanga, xalkka muxabbat va sadokat, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga xurmat ruxida tarbiyalashda ota –onalar, ta'lim tashkilotlar roli muxim ahamiyatga ega. Ushbu «Temurbeklar» nomli metodik kulanma nomlanishi uzi katta ma'noga egadir. Sohirqiron bobomizning muborak nomi, tarixiy siymosi, boy merosi va

noyob durdonasidir. Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati jahon tarixida juda kam uchraydigan xodisadir.

”Buyuk shaxslarni millat qayg‘usi, xalq dardi yaratadi”,- degan edi Prezidentimiz. Chindan xam, millat qayg‘usidan, xalq dardidan yaralgan bobomizday zotning dunyoga kelishi zamon zarurati va talabiga aylandi, boshqacha aytganda, tarix va zamon o‘z qahramonini o‘zi jahon maydoniga olib kirdi.

Amir Temur xaqida qisqacha ma’lumot: - Amir Temur, Temurbek, to‘liq aytsak Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay milodiy 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (hozirgi Sharhrisabz) yaqinidagi Ho‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan.

Otasi –Amir Tarag‘ay , Tarag‘aybek.

Onasi – Tegin Xotun, Tegin begim.

Rivoyat qilishlaricha, kunlardan bir kun sohibqironning sakkizinchi bobosi Qochuvli bahodir tush ko‘ribdi, tushida uning qo‘ynidan bir yulduz uchib chiqib jamol ko‘rgizibdi va shu zahotiyoq so‘nibdi, keyin ikkinchisi, uchinchisi, to‘rtinchisi yarqirab chiqibdi, bari so‘naveribdi. Bu hol etti marta takrorlanibdi. Biroq sakkizinchi martasida katta porloq yulduz otilib chiqibdi – yu, butun dunyoni yoritib yuboribdi!

Mana shu Amir Temur yulduzi deb taxmin qilinadi. Undan yana bir necha kichik yulduzlar paydo bo‘libdi, katta porloq yulduz mag‘rib chizig‘iga bosh qo‘yib so‘ngandan keyin, kichik yulduzlar porlashda davom etibdilar.

Amir Temurning bolaligi: – bolaligidanoq tabiatan og‘ir bosiq, zehni o‘tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oladi, savodni chiqaradi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlash, o‘q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlarni uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o‘rgandi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o‘n ikki yoshida tenqurlari bilan “poshsho- vazir” o‘ynashar ekan. Temurbek podsho bo‘lar, qolganlarning xar biriga bir “mansab” berilar, “gunohkor” odamni jazolab, ”yurt” boshqarar ekan. O‘n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo‘lgan, niyatni katta qilgan...

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan “O‘G‘IL BOLALAR” uchun «Temurbeklar» dasturi tugarak sifatida faoliyat olib boriladi.

«Temurbeklar» dasturining maqsadi:

- tarbiya aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ugil bolalarda insonparvarlik, mehribonlik, himmatlilik, mexnatsevarlik, rostguylik, o‘zaro g‘amxo‘rlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda idora etish, kattalar topshirig‘ini bajarish kabi his tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

“TASDIQLAYMAN”

____-MTT direktori

____-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti o’rta guruhlar uchun

“Temurbeklar” to‘garagi

ISH REJASI

	Mavzu
1	Aka-uka, opa-singillarga hurmat
2	Bobo-buvijonlarimiz
3	Shirinso‘z bo‘lish
4	O‘rtoq bo‘lish odobi
5	Rostgo‘ylik
6	Kamtarlik
7	Dangasalik yomon odat
8	Ko‘chada yurish odobi
9	Mehnatsevarlik nima?
10	Yolg‘onchilik yomon odat
11	Sher bilan Durroj
12	Vatanimiz himoyachilari
13	O‘zbekiston posbonlari
14	Ko‘shoqvoyning himmati
15	Bolari ila pashsha

16	Oshqovoq
17	CHaqimchilik
18	Chaqmachaqar
19	Rahmatni joyiga ayt...
20	Milliy o‘yinlar orqali ahloqiy tarbiya berish
21	“Xo‘rozlar jangi
22	Kurash
23	Kim tez o‘raydi
24	Qoch bolam qush keldi
25	O‘yinchoqni olib kel
26	Quyosh va yomg‘ir
27	Qush va uning bolalari
28	Yugurib keling oldimga
29	Uzun ilon izi bo‘ylab
30	Ko‘prikcha ustidan
31	Bayroqchani top
32	Tovush qayerdan kelyapti!
33	Indagi qushchalar
34	Nishonni aniqroq mo‘ljalga ol
35	Nishonga tushir
36	Koptokni quvib et

Aka-uka, opa-singillarga hurmat

Bolalarga oilada farzandlar bir-birlari bilan inoq-totuv, mehribon, hamkor va hamdard bo‘lib yashashlarini tushuntirish. Ota-onani qanday hurmat qilsak, aka-opalarni ham shunday hurmat qilishga o‘rgatish. Aka-opalarga «akajon», «opajon», «labbay», «xo‘p bo‘ladi», «buni men qilay, siz ozgina dam oling» kabi so‘zlar bilan murojaat qilish kerakligi, bunday muomaladan ota-onalarimiz ham xursand bo‘lishini tushuntirish.

Ushbu mavzuga oid xalq maqollari:

- Og‘a ining totuv bo‘lsa – bosh ko‘p,
opa singil totuv bo‘lsa - osh ko‘p.
- Aka uka arazli bo‘lsa ham g‘araxzli bo‘lmas.



Bobo-buvijonlarimiz

«Qari bilganini, pari bilmas» maqolining izohi. Qariyalarning dono, mehribon, to‘g‘riso‘z bo‘lishi, ularning so‘ziga quloq solish, bergan nasihatlariga amal qilish zarur ekanligi. Ertak, rivoyatlarda keksalarni asrash, ularning maslahatlari bilan ish tutish haqida aytilgan pand-nasihatlar. Bobo-buvijonlarning duolarini olish, hurmat qilish, ularning xizmatida bo‘lishni tushuntirish. Oilada qariyalar bilan ahil yashash haqida suratlar ko‘rsatish. Po‘lat Mo‘minning «Buvijonim, buvijon» she‘rini o‘qib berish orqali buvijonlarga nisbatan mehr uyg‘otish.



Shirinso‘z bo‘lish

Bolalarga inson odobini, xulq atvorini ko‘z-ko‘z qiladigan til xususida, so‘zlash qoidasi haqida tushuncha berish. Bolalarni shirinso‘z bo‘lishga da‘vat etish. Avvalo shirinso‘z nima ekanini tushuntirish. Shirinso‘zlik-bu kishining dilini yayratadigan, ko‘nglini ko‘taradigan qilib so‘zlash ekani, og‘izdan doimo yaxshi so‘z chiqishga harakat qilish kerakligini tushuntirish. Bolalarga “Avval o‘yla, keyin so‘yla” maqolini mazmunini tushuntirish. Inson xatoni ko‘proq o‘z tili bilan sodir qilishini hayotiy misollar bilan tushuntirish. Mavzu bo‘yicha Abu Ali Ibn Sinoning so‘zlaridan keltirish. Mavzuga bog‘liq hikoya o‘qib berish.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o'zingizga kerak bo'lgan hujjatlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga yoki jek567 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

O'rta guruhlariga 47 listdan iborat


Temurbeklar to'garagini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:
[@maktabgacha_tt](https://t.me/maktabgacha_tt)

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**